НАУЧНЫЙ ИМПУЛЬС
ЦЕНТР НАУЧНОЙ ПОДДЕРЖКИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ СОВРЕМЕННЫЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

# НАУЧНЫЙ ИМПУЛЬС



*Международный современный научно-практический журнал*

# Научный импульс

№ 5 (100)
Декабрь 2022 г.

**Часть 2**

Издается с августа 2022 года

Москва 2022

*Председатель редколлегии:*

***Гуляева Элена Камаловна*** *- Представитель технической поддержки*

*Редакционная коллегия:*

***Макаровский Руслан Сергеевич-*** *Заведующий кафедрой организационного управления Института прикладного анализа поведения и психолого-социальных технологий, практикующий психолог, специалист в сфере управления образованием.*

***Арестова Инесса Юрьевна*** *– канд. биол. наук, доц. кафедры биоэкологии и химии факультета естественнонаучного образования ФГБОУ ВО «Чувашский государственный педагогический университет им. И.Я. Яковлева», Россия, г. Чебоксары;*

***Ахмеднабиев Расул Магомедович*** *– канд. техн. наук, доц. кафедры строительных материалов Полтавского инженерно-строительного института, Украина, г. Полтава;*

***Бахарева Ольга Александровна*** *– канд. юрид. наук, доц. кафедры гражданского процесса ФГБОУ ВО «Саратовская государственная юридическая академия», Россия, г. Саратов;*

***Бектанова Айгуль Карибаевна*** *– канд. полит. наук, доц. кафедры философии Кыргызско-Российского Славянского университета им. Б.Н. Ельцина, Кыргызская Республика, г. Бишкек ;*

***Волков Владимир Петрович*** *– канд. мед. наук, рецензент АНС «СибАК»;*

*Елисеев Дмитрий Викторович – канд. техн. наук, доцент, начальник методологического отдела ООО "Лаборатория институционального проектного инжиниринга";*

***Комарова Оксана Викторовна*** *– канд. экон. наук, доц. доц. кафедры политической экономии ФГБОУ ВО "Уральский государственный экономический университет", Россия, г. Екатеринбург;*

***Лебедева Надежда Анатольевна*** *– д-р филос. наук, проф. Международной кадровой академии, чл. Евразийской Академии Телевидения и Радио, Украина, г. Киев;*

***Маршалов Олег Викторович*** *– канд. техн. наук, начальник учебного отдела филиала ФГАОУ ВО "Южно-Уральский государственный университет" (НИУ), Россия, г. Златоуст;*

***Орехова Татьяна Федоровна*** *– д-р пед. наук, проф. ВАК, зав. Кафедрой педагогики ФГБОУ ВО «Магнитогорский государственный технический университет им. Г.И. Носова», Россия, г. Магнитогорск; Самойленко Ирина Сергеевна – канд. экон. наук, доц. кафедры рекламы, связей с общественностью и дизайна Российского Экономического Университета им. Г.В. Плеханова, Россия, г. Москва ;*

***Сафонов Максим Анатольевич*** *– д-р биол. наук, доц., зав. кафедрой общей биологии, экологии и методики обучения биологии ФГБОУ ВО "Оренбургский государственный педагогический университет", Россия, г. Оренбург;*

***Милютин Николай Даминович*** *– Доктор юридических наук;*

***Сергеев Анатолин Викторович*** *– Кандидат биологических наук.*

***Научный импульс****: научный журнал. – № 5(100). Часть 2. М., Изд. «МЦНО», 2022.*

Журнал **«Научный импульс»** освещает сферу духовно-просветительского мышления человека, общественно-политическую жизнь человека, институты гражданского общества, глобальные проблемы, проблемы образования, новые технологии, производимые сегодня, реформирование системы образования и публикуются научные статьи, посвященные открытому научно-популярному анализу.

| | |
|---|---|
| **ИМКОНИЯТЛАРИ**<br>Кузиев Шавкат Абдумуратович<br>Кузиева Мухлиса Абдумалик қизи | |
| **QUALITY CONTROL OF MEDICAL AND PHARMACEUTICAL GOODS AND STANDARDIZATION**<br>Shavkatov Otabek Kozimbek o’g’li | **602** |
| **OGAHIY G‘AZALLARIDA MAVZU KO‘LAMINING RANG-BARANGLIGI**<br>Dilorom Qo‘ziyeva | **610** |
| **АНАЛИЗ МЕТОДИК ОЦЕНКИ ОБЪЁМА ТУРИСТИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНА**<br>Усманова Азиза Баходировна<br>Асланова Дильбар Хасановна | **613** |
| **BAG‘RIKENGLIK, TENGLIK, INTEGRATSIYA –“ OQ QAMISH” CHELLENCHIDA NAMOYON BO‘LDI**<br>Sh.N.Ibadullayeva<br>B.J.Bekchanova | **618** |
| **MENDAN KEYINGI 1000 QADAM SENIKI**<br>Sh.N.Ibadullayeva<br>S.J.Muvassarova | **621** |
| **TUNYUQUQ BITIK TOSHI VA QADIMGI O'RXUN ENASOY YODGORLIKLARI**<br>Yakubova Tursunbibi Tairovna<br>Boltaeva Gulmoh Zafar qizi | **625** |
| **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA HUQUQIY TARBIYA BERISH VA ''BOLA HUQUQLARI TO'G'RISIDA KONVENSIYA''**<br>Abdullayeva Maftuna Uktam qizi<br>Jumayeva Saodat Elmurodovna<br>Mamatjonova Zarifa Po'latovna | **628** |
| **BOSHLANG’ICH SINFLARDA “TARBIYA” FANINI O’QITISHDA IJODIY TOPSHIRIQLARNING O’RNI VA AHAMIYATI**<br>Dadajonov Zafarjon | **631** |
| **“INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISHDA KRIATIV YONDASHUV”**<br>Abdullayeva Nafisa Nazirovna | **636** |
| **«MATEMATIKA DARSLARINI O’QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH»**<br>Baymuratov Ibrat Ishmuratovich<br>Sayfullayeva Baxtigul Boltayevna | **640** |

# MENDAN KEYINGI 1000 QADAM SENIKI

*Ch.D.P.U.Maxsus pedagogika kafedra o‘qituvchisi*
**Sh.N.Ibadullayeva**
*Surdopedagogika yo‘nalishi talabasi*
**S.J.Muvassarova**

O'zbekiston - jannatmakon diyor! Tog'lari, qir-adirlari,bog‘-u rog‘lari, sharqirab oqayotgan soylari ko‘zni quvnatadi. Tabiatimiz ko‘p oilalarni havasini keltiradi. Biroq hozirgi kunda ishlab chiqarish, texnika taraqqiyoti, qishloq xo‘jaligiga nisbatan biryoqlama yondashuv tufayli yirik o‘rmonlar, uzoq yillik daraxtlarning kamayishiga hamda atmosferaning turli zaharli tutunlar bilan ifloslanishiga olib kelmoqda. Bunday salbiy masalalarni iloji boricha bartaraf etish maqsadida 2021-yil 2-noyabrda o'tkazilgan videoselektorda davlatimiz rahbari tomonidan " Yashil makon " umummiliy loyihasi ilgari surilib, shahar va qishloqlarda ko‘kalamzorlashtirilgan maydonlarni 8% dan 30% ga yetkazish tashabbusi orqali mazkur sohada yuzaga kelgan bo‘shliqlarni to‘ldirishning real imkoniyatlari o'rtaga tashlandi. Shu o'rinda bizda " Yashil makon " umummiliy loyihasi nima degan savol tug'iladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev raisligida 2021-yil 2-noyabrda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilangan ustivor vazifalardan kelib chiqib, mamlakatimizda " Yashil makon " umummiliy loyihasi doirasida amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan qaror qabul qildi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining deputatlari tomonidan saylov okruglaridagi faoliyati davomida " Yashil makon " umummiliy loyihasining mazmun - mohiyati va ahamiyatini saylovchilarga keng tushuntirish, " Yashil makon " umummiliy loyihasi doirasida hududlarda ko‘chat ekish, ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirishga doir tadbirlarda faol ishtirok etish hamda ushbu Qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosari X. Gapparov zimmasiga yuklatilishi aytib o'tilgan. " Yuksalish " umummiliy harakati O'zbekistonda daraxtlar sonini oshirishga qaratilgan bu kabi tashabbuslarni qo'llab - quvvatlaydi. Shu boisdan respublikamizning 6 ta hududida " Bir million daraxt " aksiyasi o'tkazildi. Daraxtlar havodagi zararli karbonat angidridni yutib, o'rniga kislorod ishlab chiqaradi va bizning nafas olishimizga yordam beradi. Ular issiqda salqinlik beradi, atrof - muhitni shovqinlardan himoya qiladi. Ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda dunyo bo'yicha 3 trillion atrofida daraxt mavjud. Biroq har bir daqiqada ularning 27 ta futbol maydoniga teng qismi kesilmoqda.



"Yashil makon" umummiliy loyihasi shahar markazlaridagi havoni tozalash, odamlar hayotini saqlab qolish va ularning turmush sharoitini yaxshilashga hissa qoʻshadi. Jarayon ko'tarinkilik bilan jadal surʻatda davom etayotgan boʻlsa ham, daraxtlarni ekish va parvarishlash jarayonini boshqarish bo'yicha samarali va keng koʻlamli yondashuv qabul qilinmasa, daraxtlar va, umuman, dasturning taqdiri ma'lum boʻlib qoladi. Muvaffaqiyatga erishish, ya'ni ko'chatlar ildiz otib, osmonga boʻy choʻzishini ta'minlash, uglerod tashlanmalari hajmini kamaytirish va ular bilan keyinchalik potential ravishda savdo qilish imkoniyatini qo'lga kiritish uchun saʻy - harakatlar mamlakat miqyosida samarali tarzda muvofiqlashtirilishi lozim. Loyihani qo'llab - quvvatlash va uning barqarorligini ta'minlash uchun innovatsion moliyalashtirish yechimlari ishlab chiqilishi mumkin. Shuningdek, saʻy-harakatlar daraxt va buta turlarini diversifikatsiya qilish, ularning kasalliklarga chidamli chidamliligini oshirish va biologik xilma - xillikni oshirishga qaratilishi maqsadga muvofiq. 2019-2020 yillarda o'tkazilgan. "Bir million daraxt" aksiyasi davomida O'zbekistonning barcha hududlarida jami 3 million 800 ming tupga yaqin mevali va manzarali daraxt koʻchatlari ekildi. Oʻrmonchilik sohasi mutaxassislarining ta'kidlashicha, daraxtzorlarni barpo etishdagi asosiy masal - bu daraxtlarning qaysi turlarini ekish, qayerda va qanday zichlik zichlikda ekish. Ayrim mamlakatlar daraxtzorlarni yaratish dasturlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga erishgan. Masalan, Xitoyda " Buyuk yashil devor " loyihasi natijasida chang boʻronlarining takrorlanish darajasi va jadalligi pasaygan boʻlsa, Afrikaning Sahel hududidagi choʻllanishga qarshi kurash bo'yicha umumafrika dasturi doirasida Senegalda 40 ming gektar maydonga 12 million tup daraxt ekilgan. " Yashil makon " tashabbusi BMT Bosh Assembleyasining Orolboʻyi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi, deb e'lon qilish toʻgʻrisidagi 2021-yilgi rezolyutsiyasi maqsadlari bilan hamohang.





Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev raisligida mahallalarni obod qilishdagi ustivor vazifalar hamda " Yashil makon " umummiliy loyihasi yuzasidan

o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida o'tgan yilgi tajribadan kelib chiqib, mamlakatimiz bo'ylab 20-oktyabrdan 1-dekabrga qadar ko‘chat ekish bo'yicha "Dolzarb 40 kunlik" e'lon qilingan edi. Hozirgi kunda Chirchiq davlat pedagogika universitetida ham "Yashil makon" umummiliy loyihasi doirasida "Dolzarb 40 kunlik" tadbirlari davom etmoqda. Universitetimizning jonkuyar jamoasi hamda talaba - yoshlari universitetni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarida o‘z hissasini qo'shib kelmoqda. Har birimiz o‘zimiz ta'lim olayotgan hududni obodonlashtirish hamda yashillikni asrab - avaylash uchun mas‘ul ekanligimizni teran his qilib, ezgu ishlarda o‘z hissamizni qo‘shishimiz kerak.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti "Pedagogik Desantura" klubi a'zolari tomonidan tashkil etilgan "Mendan keyingi 1000 qadam seniki" marafoni tashkil etildi. Marafon har faslning 1-haftasining payshanba kunida tashkil etilishi rejaga kiritildi 1-dekabr kuni soat 1:20 da klub a'zolari tomonidan boshlab berildi.





Bu marafonda ko'ngilli desantura a'zolari tomonidan atrof - muhit tozaligiga hissa qo'shildi. Bundan maqsad "Yashil makon" tozaligiga oz bo‘lsa-da hissa qo‘shish. Marafon quyidagi tartibda o'tkaziladi: har bir ishtirokchi 1000 qadam masofani tozalaydi va 1000 qadamdan keyingi masofa qolgan talabgor talabalarga beriladi. Har birimiz o‘z hududimiz tozaligi uchun hissa qo‘shaylik.

**ADABIYOTLAR:**

1. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2022). Nutq ustida ishlashning tizimli yondashuvlari orqali eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni inklyuziv ta’limga tayyorlash. Pedagogik ta’lim innovatsiyon klasteri, 1(1), 350-352.

2. Ibadullayeva, S. N., Masaliyeva, S. (2022). Inkluyziv ta’lim sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tasavvurlarini rivojlantirish omillari. Inklyuziv ta’lim, 1(2), 111-113.

3. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2021). Nogironligi bo‘lgan ota-ona qaramogida bo‘lgan yetim bolalarni ijtimoiylashtirishning metodik klasteri. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar, 6(1), 280-286.

4. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2021). Ta’lim klasteri sharoitida erta inklyuziyaga erishish kozlear implantli bolalar ijtimoiylashuvining eng optimal omili. Yangi O‘zbekistonda xalq ta’limi xodimlarini malakasini oshirishda zamonaviy yondashuvlar, 1(1), 55-65.

5. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2021). Ta’limda tolerantlikka erishish kelajak oʻqituvchisini inklyuziv ta’limga tayyorlashga erishish sharti sifatida. Zamonaviy maktabda va jamiyat aloqadorli, 1(1), 61-65.

6. Ibadullayeva, S. N., Jurayeva, Z. (2021). Kar va zaif eshituvchi oʻquvchilarni inklyuziv ta’limga tayyorlashda korreksion mashg’ulotlarning ahamiyati. Inklyuziv ta’limning dolzarb masalalari, 1(1), 35-70.

7. Sh.N.Ibadullayeva magistrlik dissertasiya 2022 y.